
“Har bir oila — tadbirkor” dasturi obod yurt va farovon turmush uchun

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning joriy yil 12-13 iyun kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi davomida hamda Oltiariq tumanida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dolzarb vazifalar muhokamasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilish bayonida "Har bir oila — tadbirkor" dasturini Farg‘ona viloyatida amalga oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar grafigini ishlab chiqish va tasdiqlash, bir oy muddatda barcha tashkiliy tadbirlarni yakunlab, har bir oilani xatlovdan o‘tkazish, tadbirkorlik salohiyatini aniqlash va ko‘mak berishlarini boshlash, dasturni amalga oshirish uchun Andijon viloyati dasturi misolida horijiy moliya institutlari va boshqa manbalar hisobidan 100 million dollar miqdorida mablag‘ ajratish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish, mazkur mablag‘lar to‘liq o‘zlashtirilgandan so‘ng yana 100 million dollar ajratish choralari ko‘rish kabi bir qator topshiriqlar berildi.

Quyida muhtaram yurtboshimiz nega aynan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratgani, har bir oila — tadbirkor" dasturining asl maqsadi va mazmun-mohiyati nimalardan iborat ekanligiga to‘xtalamiz.

Davlatimiz rahbarining viloyatimizga tashrifi chog‘ida yangi-yangi tashabbuslar, hayotbaxsh loyihalar bo‘y cho‘zdiki, bularning ahamiyati haqida oylab-yillab – to‘xalishga to‘g‘ri keladi.

Shular jumlasidan Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Har bir oila — tadbirkor" konsepsiyasi mehnat bilan band bo‘lmagan aholini tadbirkorlik, hunarmandlik, fermerlik, kasanachilikka o‘rgatish orqali ularga daromad manbai yaratib berishga qaratilgan. Har bir oilaning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratishga oilada daromad keltiradigan tadbirkorlikni tashkil etish uchun zaruriy iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilmoqda.

Ayniqsa, "Har bir oila — tadbirkor" konsepsiyasi asosida xotin-qizlarni tadbirkorlik, xususan, oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga keng jalb etish maqsadida tushuntirish-targ‘ibot ishlarini olib borish hamda yil davomida o‘kuv kurslari, seminarlar va davra suhbatlarini tashkil etish bo‘yicha bergan topshiriqlari ayollarimiz oldidagi muammolarni barataraf etilishida yanada ahamiyat kasb etdi.

Oilaviy biznes kichik bo‘lsada o‘zbiznesiga ega bo‘lgan oilada intilgani maqsad, farzandlarini o‘stirgani sabab, meros qilib qoldirgani narsa mavjud bo‘ladi. Shunday qilib mamlakatda asta sekinlik bilan o‘zi uchun ishlay oluvchi va shu bilan bir vaqtda davlaga ham salmoqli daromad keliruvchi mulkdorlarning o‘rta sinfi shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi "Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida"gi qonunining kuchga kiritilishi (qonun 2012 yilning 24 aprelidan boshlab kuchga kirdi) mamlakatimizda kichik oilaviy biznesni rivojlanirish uchun huquqiy asosni yaratdi.

Shu sharoida hozirgi kunda respublikamizda 13 ming 248 ta oilaviy korxonalar faoliyat olib boryapti. Ularda 22 ming 579 nafar odam ish bilan ta‘minlangan. 2017 yilning o‘zida oilaviy korxonalar tomonidan 379 milliard 399 million so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Joriy yilning birinchi choragida oilaviy tadbirkorlar tomonidan salkam 6 milliard 579 million so‘m soliq to‘langan.

Lekin bugungi kun talabiga ko‘ra, yiliga yarim million nafardan ko‘payib borayotgan respublikamiz aholisini ish bilan taminlash va ro‘zg‘orini but qilish, har bir oilaning tadbirkorlik resurslaridan foydalanmay turib bajarilishi mushkul bo‘lib qolmoqda.

Davlatimiz rahbari mazkur vazifaning echimini aniq ko‘rsatib berdi. Har bir oilaning biznes bilan shug‘ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga yangicha yondashildi. Qarorga asosan, mamlakatimizning har bir tuman hamda shahrida, avvalo, olis va tabiiy-iqlim sharoiti og‘ir hududlarda shu nomdagi dastur amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Birgina viloyaimiz misolida ko‘radigan bo‘lsak, viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Akmalxon Oriqov rahbarligida «Har bir oila — tadbirkor» dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha tashkiliy ishchi guruh, hokimlarining o‘rinbosarlari rahbarligida aholiga tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish va tavsiyalar berish bo‘yicha maxsus ishchi guruhlar tuzildi.

Tuman (shahar) hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari rahbarligida Tadbirkorlik faoliyati tashkil etishga amaliy yordam berish hamda monitoring qilish bo‘yicha hududiy ishchi guruhlar tuzilib, ularning har biriga alohida vazifalar yuklatildi va guruhlar joylarda jadallik bilan faoliyatini olib bormoqda.

Hududiy ishchi guruhlar tomonidan har bir xonadonni o'rganib, aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratish, ya'ni biznes-rejani tuzishdan tortib, kredit olish, mahsulotni ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilishgacha bo'lgan jarayonda aniq manzilli yordam ko'rsatilmoqda.

Qarorda Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasi zarur bo'lgan holatlarda Dasturda belgilangan vazifalarni qo'shimcha moliyalashtirib borishi mustahkamlangan. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi esa tadbirkorlik sub'yektlariga ajratiladigan kreditlarga ustuvor ravishda kafilliklar hamda foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalar ajratib boradi.

Dastur asosida tijorat banklari tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar beriladi. Xususan, buning uchun eng kam ish haqining yuz ellik baravarigacha, belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga faoliyatni rivojlantirish uchun eng kam ish haqining ming baravarigacha, tadbirkorlik sub'ektlarining investitsiyaviy loyihalari uchun esa eng kam ish haqining ming baravaridan ortiq miqdorda kreditlar ajratiladi.

Qaror bilan oilaviy tadbirkorlik faoliyati uchun yer ajratish masalasi ham o'z echimini topdi. Tegishli vazirlik va idoralar mahalliy hokimliklar bilan birgalikda ikki oy muddatda foydalanilmayotgan yer maydonlarini inventarizatsiyadan o'tkazib, ularga bo'lgan huquqlarni qonuniy tarzda bekor qilish, ushbu yer maydonlarini Dastur doirasida faoliyatini boshlayotgan hamda kengaytirayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga ajratish choralari ko'riladi.

Umuman aytganda, keng aholining fikri bilan qiziqqanimizda, ushbu qaror har bir oilaning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi hamda barqaror daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi bilan, mamlakatimiz taraqqiyotiga, xalqimiz farovonligiga daxldor bo'lgan muhim hujjat bo'lib qoladi deb aytilmoqda.

Ahmadali Teshaboyev

2018-06-30 11:00:07